



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Todjibayeva Komila Sobit qizi**

T. N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

## **INKLYUZIV KOMPETENTLIK- BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISI KASBIY STANDARTNING AJRALMAS QISMI SIFATIDA**

**Annotatsiya:** mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida inklyuziv kompetentlikni shakllantirish muammosi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, alohida yordamga muhtoj bolalar, inklyuziv kompetentlik.

Ta'lim olish huquqi har bir insonning asosiy ijtimoiy huquqlaridan biri bo'lib, mazkur huquq bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1989-yil 20 noyabrda qabul qilgan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi 28-moddasida har har bir bolaning ta'lim olish to'g'risidagi huquqlari kafolatlangan. "Konvensiyani imzolovchi davlatlar har bir bolaning ta'lim olish huquqini tan oladi va ushbu huquqning bosqichma-bosqich amalga oshirilishida barcha



uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi [1]". Ushbu Konvensiya dunyoning 196 mamlakati shu jumladan O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan.

O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolati to'g'risida»gi Qonuni 29-moddasiga muvofiq, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqiga doir kafolatlari tasdiqlangan:

1. Davlat maxsus pedagogik yondashuvlari talab etiladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning umumbelgilangan ta'lim standartlari va talablari darajasida ta'lim olishini kafolatlovchi zaruriy mablag'lar ajratadi va boshqa choralarni ko'radi.

2. Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan va nogironligi bo'lgan bolalar maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim maskanlarida o'zlarining jismoniy, aqliy qobiliyatlari va istaklaridan kelib chiqqan holda bilim olish huquqiga egadirlar.

3. Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan va nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalari tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tavsiyanomasi mavjud bo'lganda, bola qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, o'z istagi bilan umumiy yoki maxsus ta'lim maskanini tanlashi mumkin [2].

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish o'z-o'zidan boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga qo'yiladigan talabning ortishini, ularning funksional majburiyatlarini ko'payishini va professional malakalarini kengayishi ehtiyojini keltirib chiqaradi [3].



An'anaviy bilim va malakalarning o'zigina bu ta'lim turida yetarli emas. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan maxsus professional kompetensiya, ya'ni inklyuziv kompetentlikni talab qiladi.

Pedagog va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi muammosi ko'pgina tadqiqotlar predmetiga aylangan. Masalan Rossiyalik olim N.V.Kuzminaning tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi komponentlari metodik kompetentlik, pedagogik-psixologik kompetentlik va autopsixologik kompetentlik va ijtimoiy kompetentlikdan iborat deb sanab o'tilgan. Olimaning samaradorligi yuqori va samaradorligi sust bo'lgan pedagog haqida bildirgan mulohazalari diqqatga sazovor. Ushbu farq eng avvalo ta'lim oluvchilarning berilgan materialni o'zlashtirish jarayonidagi o'ziga hosliklarini hisobga olishi, ular faoliyatidagi individual farqlarni ko'ra olish qobiliyatida seziladi [4]deya keltirib o'tgan.

A.K.Markovning ta'kidlashicha kompetentli pedagog o'z kasbiy faoliyatini yuqori darajada yo'lga qo'ygan, samarali pedagogik muloqotga kirisha oladigan, ta'lim va tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikni namoyon qilib, shaxs va professional sifatida shakllanuvchi mutaxassisdir. A.K.Markova pedagoglar kompetensiyasining bir necha turlarini ajratib ko'rsatdi: shaxsiy, ijtimoiy, individual, maxsus. Olimning fikriga ko'ra o'qituvchining kasbiy kompetentligi kasbiy pedagogik pozitsiya, kasbiy bilim va ko'nikmalar, shaxsiy hususiyatlar kabilarni o'z ichiga qamrab oladi [5].

O.S.Borodina [6] o'z tadqiqotlarida o'qituvchining inklyuziv kompetentligi inklyuziv amaliyotni joriy etishga yordam beruvchi, samarali kasbiy faoliyatni ta'minlovchi shaxsiy-integrativ ta'lim mahsuli deya ta'rif beradi. Ushbu kompetentlik turi esa bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ya'ni inklyuziv ta'lim muhitida ishlashga to'g'ri kelgan vaqtdan ancha avval shakllantirilmog'i lozimligini ta'kidlaydi.

O.A.Kozyreva [7] inklyuziv kompetentlikni imkoniyati cheklangan va nogiron bolalarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlar yaratishga yordam beruvchi; inklyuziv ta'lim muhitini modelashtiruvchi; imkoniyati cheklangan va nogiron bolalar o'qitish muammolarini hal etishga yordam beradigan metod va texnologiyalarni qo'llash; o'z-o'zini rivojlantirish trayektoriyasini loyihalashga imkon beruvchi pedagogik qobiliyatlar yeg'indisi sifatida ta'riflaydi.



Shuni ta'kidlash lozimki, inklyuziv kompetentlikni shakllantirish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagi muhim sifatlarga ega bo'lishi lozim: empatiya, refleksiya, mobillik va moslashuvchanlik, hamkorlik qobiliyati, ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga nisbatan senzitivlik, muloqotchanlik, o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmasi va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/docs/2595909>
2. <https://www.lex.uz/docs/-1297315>
3. Тоджибаева К. С. К. Профессиональная педагогическая компетентность учителя: феноменология понятия // Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 27 (39).
4. Кузьмина О. С. Особенности организации подготовки педагогов к работе в условиях инклюзивного образования // В мире научных открытий. – Красноярск: Научноинновационный центр (Проблемы науки и образования). – 2013. – № 11.8. – С. 337-344.
5. Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Издательство: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 308 с.
6. Бородин О. С. Формирование инклюзивной компетентности будущего учителя основ здоровья // Профессиональное образование в России и за рубежом. – 2014. – № 1 (13). – С. 75-79.
7. Козырева О. А. Изменения в структуре профессиональной компетентности педагога в условиях перехода к инклюзивному образованию // Сибирский вестник специального образования. – 2017. – №